

Shaymardon NOROV,
 ISFT instituti katta o'qituvchisi
 E-mail: shnorov@bk.ru
 Tel: 97 711-85-96

Psixologiya fanlari doktori, professor v.b X.Abdusamatov taqrizi ostida

STUDYING THE MIGRATION PROCESS BY UZBEK SCIENTISTS

Annotation

This article describes the migration, socio-psychological characteristics of migrant families. The article mainly covers research conducted by Uzbek scientists. Increasing features of the migration process have been identified. It is shown that Uzbek scientists approached the migration process from a philosophical, economic, political and psychological point of view.

Key words: Migration, family, Uzbek scientists, psychology.

ИЗУЧЕНИЕ МИГРАЦИОННОГО ПРОЦЕССА УЗБЕКСКИМ УЧЕНЫМИ

Аннотация

В данной статье описаны миграционные, социально-психологические особенности семей мигрантов. В статье в основном освещаются исследования, проводимые узбекскими учеными. Выявлены нарастающие особенности миграционного процесса. Показано, что узбекские ученые подошли к миграционному процессу с философской, экономической, политической и психологической точки зрения.

Ключевые слова: Миграция, семья, узбекские ученые, психология

O'ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN MIGRATSIYA JARAYONINING O'RGANILGANLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mirgatsiya, migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Maqolada asosan o'zbek olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar yoritilgan. Mirgatsiya jarayonining ortib borish xususiyatlari ochib berilgan. O'zbek olimlari tomonidan migratsiya jarayonini falsafiy, iqtisodiy, siyosiy va psixologik jihatdan yondoshilganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, oila, o'zbek olimlari, psixologiya.

Kirish. Mamlakatimiz olimlari tomonidan migratsiya jarayonining turli ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatlari o'rganilgan. Ammo migrant oilalar muammolariga ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmagan. Oilada turmush o'rtog'i uzoq muddat mehnat migranti bo'lgan o'zbek oilalarini ijtimoiy-psixologik tomonlari tadqiq etilmagan. Umuman olganda migrant oilalar ilmiy tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Iqtisod, xuquqshunoslik, falsafa, siyosatshunoslik sohalarida migratsiya muammosi o'rganilgan.

Mamlakatimizda kam sonli olimlar tomonidan migratsiya jarayoni o'rganilgan. Migratsiya jarayonini ijtimoiy-gumanitar soha doirasida R.Madaliyeva, T.Saidbayev, K.Kalanov, A.Rasulov, N.Kurbanov va F.Parmonovlar o'zlarini tadqiqotlarida qisman yondoshganlar.

Bugungi kunda migratsiya jarayoni har bir xalqning etnik xususiyatlariga, yashash tarziga, kundalik hayot tartibiga kuchli ta'sir qilmoqda. Har bir migrant o'z vataniga qaytgandan so'ng, u migrant hisoblanmaydi. Ammo u o'sha davlatda o'rganigan odatlar, ko'nikmalar va tarjibalarni o'z oilasida amalda qo'llay boshlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. E.M.Muxiddinov tomonidan aholini ish bilan ta'minlash jarayonida migrantlarning roli bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotchi tomonidan migrant shaxslarni psixologik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydigan mexanizm yaratish kerakligi ta'kidlanadi. Tashkil etilgan mehnat migratsiyasi migrantlarni faqat ish bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Ammo ularni intergatsiya va naturalizatsiya jarayonidan o'tishi, ishga joylashishdagi psixologik muammolar, oilasi bilan munosabatga kirishishdagi turli ijtimoiy-psixologik muammolarda yordam ko'rsatish tizimini yaratishga alohida ehtiyoj borligi ko'rsatilgan. Mamlakatda olib borilayotgan migratsiya siyosatida gender omillarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Ayollar migratsiyasi aksariyat hollarda zo'rvonlik, majburlash va tinimsiz ishlatish qo'rboni bo'lib qolish ortayotganligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy ish beruvchilar o'rtasida migrantlarni etnik xususiyatidan kelib chiqib, milliy maslahat mexanizmini joriy etish eng muhim omil sifatida ko'rsatiladi (1).

D.N.Mo'ydinov tomonidan migratsiya jarayonlarini jamiyat barqarorligiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotchi tomonidan "tushkunlik modeli" o'rganilgan bo'lib, unda mehnat migranti sifatida ishga ketgan shaxs yangi ijtimoiy madaniy muhitdagi turli salbiy hodisalar, atrof-muhitni iflosligi, tabiiy hodisalar bosh o'g'rig'i bo'lishi unda uyga qaytish, afsuslanish kabi psixologik his-tuyg'ularni boshdan kechirish kabi hodisalar borligi o'rganilgan. D.N.Mo'ydinov tomonidan migratsiyaga sabab bo'layotgan omillarni ikki qismga bo'lgan. Unga ko'ra yumshoq omillarga – ishsizlik, qashshoqlik va ijtimoiy qoloqlik, qattiq omillarga - shaxs inqirozlariga sabab bo'lgan dramatik hodisalar.

Tadqiqotchi tomonidan ijtimoiy tarmoqlar nazariyasi urg'u beradi. Unga ko'ra migrantlarning ortda qolgan qarindoshlari, do'stlari va o'zi ulg'ayib o'sgan insonlar orasida ipsiz bog'liklik bo'ladi. Migrantlar o'z vatanida qolgan qarindosh urug'lariga ish to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish, kam harajatli joylarni aniqlash va ijara uy topishda yordam berish natijasida migrantlar zanjirini hosil qilmoqda. Yuqoridagi zanjir faqat mehnat migratsiyasida emas, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarga ham keng kirib bormoqda.

S.K.Alimov tomonidan migrantlarni ahloqiy jihatlari tadqiq etilgan. Unga ko'ra migratsiya siyosati asosan immigrant davlat tomonidan amalga oshirilish ko'rsatiladi. Ushbu jarayon ma'lum bir siyosiy, psixologik, xukukiy, etnik mezonlar asosida amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Migrantlar oldida ikki omil huquq va majburiyat turadi. Majburiyatlari o'z oilasini moddiy jihatdan ta'minlash, farzandlarni o'qitish, uy-joyli qilish kabi omillar kiritiladi. YA'ni, xar kanday xukukiy vaziyat migrantlarda majburiyatni yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda migrant va immigrant davlatlar o'rtasida mehnat migrantlarining etnik xususiyatdan kelib chiqib, xuquq va majburiyatlarini belgilash muhim hisoblanadi. Unda mehnat migrantlari boshqa davlatga kirar ekan, o'zi yashashi uchun erkin joyni tanlash huquqi, o'sha jamiyatdagi konunlar, urf-odatlarini hurmat qilish, kabul kiluvchi shaxsning milliy, etnik va milliy diniy kadriyatlarini xurmat qilish kabi axlokiy majburiyatlarini xam o'z zimmasiga oladi. Har qanday davlat

o'zi qabul qilayotgan migrantlarni etnik xususiyatidan kelib chiqib, ularni huquq va majburiyatlarini belgilashi muhim hisoblanadi. Har qanday davlat migrantlar bilan bog'liq siyosatni ongli boshqarish xuquqiga ega. Bu nimani anglatadi, mamlakatga kirib keluvchi migrantlarni ma'lum mezonlar asosida saralash, individual xususiyatdan kelib chiqib, ularni sohalarga yo'naltirish kabilarni o'z ichiga oladi (2).

Mamlakatimizda olib borilayotgan mirgatsiya siyosati inson psixologiyasiga ta'siri doirasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, mirgatsiya jarayonini yopiq siyosat sifatida olib borish kerak emas. Zero, shaxsning xuquq va majburiyatlari xar kanday mamlakat xuquq tizimining asosiy tamoyillaridan biri xisoblanadi.

Ikkinchidan, migratsiya jarayoni davlat va inson, ularning manfaatlari tizimidagi nizolardan iborat bo'lgan psixologik munozaralarga sabab bo'lmokda. Ushbu muammoni to'liq bartaraf etish bazida imkonsiz ko'rinadi. Yuqoridagi nizoli holatni bartaraf etish "oltin oralik"dagi karorlarni kabul kilish kerak bo'ladi.

Uchinchidan, migrantlarning haq-xuquqlari va davlat siyosati o'rtasidagi to'qnashuvni yo'q qiladigan mexanizmi shakllantirish, imtiyozlar masalasi, migrantning mas'uliyati va imkoniyatlari to'g'risida bilim va ko'nikmalarini o'rgatish zarur.

To'rtinchidan, migratsiya siyosatning inson manfaatlari moslashish, uni inson omili uchun hizmat qilishga qaratilgan "ongli boshkaruv" shakli bugungi juda ko'plab immigratsion davlatlarda kuzatilmokda. Bunday siyosatni yuritishda migrantlarning o'ziga hos bo'lgan individual, etnik xususiyatlari hamda demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarini xisobga olish zarur (2).

Ijtimoiy nazorat yo'q bo'lib borayotgan bir davrda, oilaning o'zida ham farzand tarbiyasiga ma'sul bo'lgan otaning mehnat migranti sifatida xorij mamlakatiga ishlash uchun uzoq muddatga ketish, farzandlarning xulqida deviant xususiyatlarni shakllanishiga keng imkoniyat yaratilgan bo'ladi. O'smirlik davrida bolalarni turli ijtimoiy xodisalarga qiziqishlari kuchaygan payt bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar xavfi ortgan vaqtda ularni nazoratsiz qoldirish mumkin emas. Mamlakatimizda migrant oila farzandlarini ijtimoiy nazoratga olish, ularni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmi mavjud emas.

Majburiy mehnat migratsiyasi oilalarning iqtisodiy tomoni yaxshilashga hizmat qiladi. Ammo tanganing ikki tomoni bor bo'lganidik, migratsiyaning teskari ta'sirini unutilsh kerak emas.

"YA'ni ota narigi jamiyatda ko'rib kelganlarini oilasiga singdirishga harakat qiladi. Farzand o'zi yashab turgan jamiyatdagi tarbiya tizimini anglab-anglamay tark etishga majbur bo'ladi. Oxir-oqibat, hech qanday fazilatlariga ega bo'lmagan egoist shaxs tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Ikkinchisi, oilasi o'zi yashab turgan jamiyatdagi axloq-odob qoidalari asosida yashashi unga yoqmagani sababli, sen shunday yashayver men erkin yashayman, deb o'z oilasini tark etishiga olib keladi" (3).

Tadqiqotchilar mehnat migrantlarining o'z yurtida qolgan farzandlari bilan pedagogik-psixologik eksperimental tajriba o'tkazilgan. Ota-onasi mehnat migrant bo'lgan oilalarda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro bog'langanlik darajasi o'rganilgan. Tadqiqot uchun ijtimoiy holatga ko'ra sinaluvchilarni qo'yidagi ikki guruhga ajratib olingan; a) otasi mehnat migranti bo'lgan yolg'iz onasi bilan qolgan bolalar, b) ota-onasi mehnat migranti bo'lgan buva va buvisi yoki yaqin qarindoshlari bilan qolgan bolalar. Tadqiqot uchun Toshkent shahri va Samarqand viloyati tanlab oligan. Yolg'iz onasi bilan qolgan bolalarning kattalarga, buva-buvisiga, onaga, aka-opalarga va do'stlariga bo'lgan hissiy yaqinlik va shaxslararo munosabat boshqa guruh sinaluvchilarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Bolaning otasiga nisbatan hissiy bog'liqligi sinaluvchilarning 46,1 % ida yuqori chiqqan. Ularning tadqiqotlarida ikkalaga guruhda ham otaga bo'lgan ijobiy munosabat 21 foizni tashkil qilgan. Migrant oila farzandlari ota-onani er-xotin sifatida qabul qilish shkalasi ikkala guruhda past ekanligi ko'rsatilgan. Otaning muntazam ravishda uzoqda bo'lishi, bolaning idrokida oila yagona jamoa emas, ota-ona o'rtasidagi munosabat to'la qonli emasligi to'g'risida taasurotlari mavjud. Bu omillar keyinchalik bolaning kelajak hayotida ota-onaning hayot tajribasini takrorlash ehtimolini yuzaga keltiradi. Oqibatda bolada noto'liq oilani normal oila sifatida ko'ra boshlaydi.

Yuqoridagi omillar oiladagi muhit farzand uchun mos emasligi, oilaviy yahlitlikning yo'qligi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda muammolarni yuzaga keltiradi. Bu esa bolada nafaqat hissiy-emotsional holatiga, uning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar migrant oila farzandlarida o'tkazilgan ilmiy izlanishlaridan quyidagi xulosalarga kelgan:

Ota-onasi mehnat migranti bo'lsa ham bolalarda ularga nisbatan emotsional hissiy bog'langanlik, ijobiy munosabatda bo'lishi kuzatilgan.

Bolalar onasi yoki boshqa qarindoshlari bilan qolganda ularning shaxslararo munosabati turlicha bo'lishi aniqlangan.

Oilada ota yoki onaning farzand birga qolishi, bolaning ijtimoiy-psixologik holati, uning psixik xususiyatlari boshqa shaxs bilan qolgan bolalarga nisbatan ijobiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Mehnat migrant sifati ota-onaning ikkalasi ham safarda bo'lishi, bola uchun psixologik jihatdan og'ir kechishi, o'z olamiga kirib olishlik, ijtimoiy omillar sababli deviant xulqni shakllanishi yuzaga keladi.

Faqat otaning mehnat migranti bo'lishi, bolada boshqa shaxslarga nisbatan emotsional bog'langanlik darajasi past bo'lishi aniqlangan. Demak oilada otaning bo'lishi farzandlarda ishonch tuyg'usi shakllanishiga va ularda shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda zamin bo'ladi [4].

Ota-ona va qarindoshlari tomonidan nazoratsiz qoldirilishi bolada xulq-atvorni buzulishi, o'z hissiyotlarini boshqara olmaslik holatlari bilan izohlanadi. Tadqiqotda davomida farzandlarni ota-onaga nisbatan saqlangan emotsional tuyg'ularini ota-onasi qaytgandang so'ng, qayta tiklash mumkinligi ko'rsatilgan. Mamlakatimizda migrant oilalarning farzandlari uchun saqlangan hissiy tuyg'ularni qayta tiklash mexanizmi mavjud emas.

Tadqiqotchilar tomonidan migrant oilalarni kompleks qo'llab-quvvatlash uchun mahallalarda quyidagilarni joriy qilishni taklif qilgan:

- mahalla tizimida migrant oilalar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etishda yordam ko'rsatadigan tizimi yaratish kerak;

- migrant oila a'zolariga moddiy yordam berish, og'ir sharoitda ishlayotgan xotin-qizlar, oilalarni o'z vataniga qaytarish, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning oilaviy munosabatlarini tiklashda psixologik yordam ko'rsatish, ularga munosib ish o'rinlarini yaratish muhim ekanligi ko'rsatilgan;

- farzandlarini yaqin qarindoshlariga tashlab ketish bolalarning psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, nazoratsizlik natijasida ularda deviant xulq atvorni buzilishi kabi salbiy xolatlarni vujudga kelishi kuzatilgan;

- farzandlarning idrokida noto'liq oila butun oila sifatida ko'rila boshlashi, uzoq muddat otasiz yashash odat tusiga aylanishi kabi omillar bola psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- ayol migrantlarda yakkalanganlik darajasi yuqori ekanligi, ular ijtimoiy-psixologik ko'makka muhtojligi alohida ta'kidlanadi.

Ota-ona va qarindoshlari tomonidan nazoratsiz qoldirilishi bolada xulq-atvorni buzulishi, o'z hissiyotlarini boshqara olmaslik holatlari bilan izohlanadi. Tadqiqotda davomida farzandlarni ota-onaga nisbatan saqlangan emotsional tuyg'ularini ota-onasi qaytgandang so'ng, qayta tiklash mumkinligi ko'rsatilgan. Mamlakatimizda migrant oilalarning farzandlari uchun saqlangan hissiy tuyg'ularni qayta tiklash mexanizmi mavjud emas.

Tadqiqotchilar o'tkazilgan so'vornomaga ko'ra, ayollarning 69 foizida ijtimoiy yakkalanganlik darajasi past, 23 foizida ijtimoiy yakkalanganlik darajasi o'rtaicha hamda 7,6 foizida ijtimoiy yakkalanganlik darajasi yuqori chiqqan.

F.Y.Parmonov tomonidan migratsiya masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Tadqiqotchi tomonidan migratsiya jarayonlarini boshkarishda inson omiliga ko'proq e'tibor berilgan. F.Parmonov o'z tadqiqotlarida quyidagi yangiliklarni aniqlagan:

- "mexnat migratsiyasi", "tashki migratsiya", "ichki migratsiya", "tebranma (mayatnik) migratsiya" larning milliy xususiyatlari aniklangan;

- O'zbekistonda ilk bor axoli tashki mexnat migratsiyasining xududlar (viloyatlar) bo'yicha faollik ko'rsatkichlari xaritasi tuzilgan;

- bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davri migratsiya jarayonlarida "inson omili" ro'lining o'sish konuniyatlari aniqlangan;

- migratsiya jarayonlariga etnodemografik ko'rsatkichlar: yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chikipti, ma'lumoti, milliy, konfessional tarkibidagi uzgarishlarning ta'sir imkoniyatlari kursatilgan;

- migratsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar, ularshshg dinamikasini belgilovchi sotsio-madashsh xususiyatlar, mezonlar aniklangan;

- migratsiya jarayonlarida «inson omili»ni boshkarshpga mutasaddi tashkilotlar uchun nazariy xulosalar, amaliy takliflar va metodologik qo'llanma yaratilgan (3).

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan nazariy tadqiqotlar tahlili natijasida aytish mumkinki, migrant oilalar muammosi kompleks tadqiq etilishiga zarurat tug'ilmogda. Ma'lumotlar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Migrant oilalar dunyo miqyosida keng o'rganilishi kerak bo'lgan global muammoga aylanayotganligi ma'lum bo'ldi.

Mehnat migrantlari yangi ijtimoiy muhitga moslashishda psixologik inqirozlarga duch kelishi natijasi, ularning hayot faoliyatini yo'nalganligiga ongli ta'sir qilishi isbotlangan.

Migratsiya, migrant oilalarning ijtimoiy, psixologik, etnik muammolari o'zbek psixologiyasida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Migratsiya muammosiga asosan iqtisodiy muammo sifati e'tibor berilgan, unda shaxs omili, uning psixologiyasi tadqiq etilmagan.

Sharq mutafakkirlari asarlarida uzoq muddat birga yashamaslik, bola tarbiyasini nazoratsiz qoldirish er-xotin va farzandlarda psixologik muammolarni yuzaga keltirishi ko'rsatib o'tilgan.

ADABIYOTLAR

1. Мухиддинов Э.М. Аҳолини иш билан бандлигини таъминлашда меҳнат миграциясини ўрни. Диссер. номзод. 2019. 162 бет.
2. Алимов С. Миграция ахлоки ва миграцион сиёсат: замонавий муаммолар ва уларнинг ечимлари // "НамДУ илмий ахборотномаси", 2020 йил 11-сон, 151-156 б.
3. Пармонов Ф, Ш.Тўраев, И.Даминов. Миграция: Мусофир ватангадолар. Монография – Т.: "Sano-standart" нашриёт, 2015. – 112 б
4. Маджидова Д.А, Хусанова Д.Ф, Базаров А.А. Меҳнат мигрантлари оилаларида шахслараро муносабатларнинг педагогик-психологик омиллари.- Т.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. 88 б.